

E. nurlykhanovna-master, senior teacher
Togaeva V. B.-master, senior lecturer
87017047073 Ormbaeva_88_88@mail.ru
Shymkent University, Shymkent, Kazakhstan

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

O.Y. Tolibova

BuxDPI magistranti

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ilmiy-pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilingan, fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarni mazmun-mohiyatini aniqlangan va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar. Tadqiqot maqsadi, tadqiqot vazifalari, ilmiy yangiligi, tavsiya ilmiy-pedagogik, metodik adabiyotlar, o'rganish va tahlil qilish, mazmun-mohiyati, metodik jihatlari, samaradorlig, ilmiy-metodik shakl, metod, vosita, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba, pedagogik kuzatuv, suhbat, test, tahlil, atrofimizdagi olam, interfaol metod, multimedia.

Аннотация. В статье проанализирована научно-педагогическая и методическая литература по использованию современных информационных технологий в обучении естествознанию в начальных классах, определены содержание и значение современных информационных технологий.

Ключевые слова. Цель исследования, задачи исследования, научная новизна, начальный класс, естествознание, современность, информационные технологии, научно-педагогическая рекомендация, методическая литература, изучение и анализ, содержание-сущность, интерактивный метод, мультимедиа.

Annotation. The article analyzes the scientific, pedagogical and methodological literature on the use of modern information technologies in teaching science in primary grades, determines the content and significance of modern information technologies in teaching natural science, the use of modern information technologies in teaching natural scienc.

Keywords. The purpose of the study, research objectives, scientific novelty, elementary grade, natural science, modernity, information technology, scientific and pedagogical recommendation, methodological literature, study and analysis, content-essence, methodological aspects, effectiveness, scientific and methodological form, method, tool.

Respublikamiz ta'lim muassasalarida intellektual rivojlangan shaxsni kamol toptirishning moddiy-texnik bazasi yaratildi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonida 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish masalasiga alohida e'tibor qaratgan³³.

Bu esa o'quvchilarda adabiy tushunchalarini shakllantirish orqali adabiy ta'limda yuksak samaradorlikka erishishga zamin yaratadi.

Axborot texnologiyalardan foydalanilganda ta'limda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'lib qoldi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'limi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, multimediali ta'lim dasturlari va taqdimotlar, loyihalar yaratildi. Darslarda o'quvva o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlarda qo'llash mumkin. "Tabiatshunoslik" fani bo'yicha "O'lkamiz suv havzalari", "Ona zamin", "O'rmon va dalalar — tabiat boyligi", "Qishloq xo'jaligi sohalari", "Bizning o'lka", "Yer osti boyliklari", "O'lkamiz hududiy tuzilishi", "O'lka chorvachiligi va o'simliklari" kabi

³³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28-январдаги "2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ–60-сон Фармони. <https://lex.uz/pdfs/5841063>

barcha mavzulari bo'yicha kompyuter testlarini ishlab chiqish, foydalanish o'quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta'sir etadi.

Shuning uchun boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish texnologiyasining takomillashtirilgan yangi uslub, shakl va vositalarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Multimediada mazmunidagi o'quv materialini o'rganish, muammoni hal etish bo'yicha turli variantdagi yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o'quvchilarning hamkorligi har bir o'quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o'z ulushini qo'shishga, ular o'rtasida filer, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Bu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o'zaro yordam muhitida sodir bo'lganligi uchun, o'quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o'zlashtiradilar, balki o'zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko'tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi.

O'qitish jarayonida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarning o'zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi. Bunda o'quvchilar hamkorlikda izlanib umumiy, shu bilan bir qatorda har bir o'quvchi uchun ahamiyatga molik bo'lgan muammoni hal etishga kirishib, ular o'rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishlash va hamjihatlikvujudga keladi.

Interfaol usullardan foydalanilgan darslarda bitta o'quvchining ustunlik qilishi, uning o'z fikrini o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi.

Interfaol usullar qo'llanilganida o'quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, o'quv muammoli vaziyatlarni hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallaydi.

O'qitishning interfaol metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

5. Insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo'gan muloqot – o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi.

6. O'qitish jarayonida o'quvchilarga o'z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga keng imkoniyatlar beriladi.

7. O'quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi.

8. O'quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari yetarli emas, balki eshitganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarining asosli va tushunarli bo'lishiga erishish lozimligini angalaydilar.

9. O'quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo'yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingan natijalarni tahlil qilish, ularning to'g'riligini tekshirib ko'rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e'tirof etishlariga erishish lozim.

Faol metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning kichik guruhlarida hamkorlikda ishlab, muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida obyekt, hodisa va voqealarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Shu sababli, "Atrofimizdagi olam" fanini o'qitishda o'qitishning reproduktiv metodlari bo'lgan og'zaki bayon, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchi mazkur metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular tarkibiga kiradigan metodik uslublarni to'g'ri anglashi va o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Muammoli izlanish metodlari dars davomida izchil va maqsadga yo'naltirilgan holda vujudga keltirilgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini faol o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Bu metodlar guruhi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng maqbul yo'lini topishi, mo'ljalni to'g'ri olishiga zamin tayyorlaydi.

Mazkur metod guruhiga mansub muammoli-izlanish xarakteridagi suhbat metodidan foydalanganda, avval muammoli vaziyatlar yaratiladi, avvaldan tayyorlangan muammoli savollar zanjiri bayon etiladi, o'quvchilarning o'qituvchi bilan birgalikda mantiqiy mulohaza yuritishiga, o'quv farazlarini hosil qilish va isbotlash, suhbat jarayonida muammoli savollarga javob topishiga imkon yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adizova Nigora Baxtiyorovna. [Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati](#). Scientific progress.
2. Adizova Nodira. "BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH OMILLARI: XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI". *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali* 2.2 (2022).
3. Amonov U.S., Saparova S.R. The mother tongue textbook of the primary school in elbek's interpretation //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407.
4. Bahramov A. Tabiatshunoslik darsligi. 3-sinf. –T: "Cho'lpon" nashriyoti. 2014.
5. Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №.2. – С. 140-144.
6. Safarov Firuz Sulaymonovich. Elementary School Dictionary Activation Methods. *European Journal of Life Safety and Stability*. (EJLSS) ISSN 2660-9630. Volume 12, 2021. P. 203-209.
7. Xoliqulovich J.R. Toponymics-a Linguistic Phenomenon in The Work of Sadridin Aini //Middle European Scientific Bulletin. –2021. –Т. 8.
8. Ўринова Мафтуна, Нуруллаева, Сарвиноз Мажидовна. "ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ҚУШ КЎРИНИШИДАГИ МИФОЛОГИК ОБРАЗЛАР ТАСВИРИ ВА ТАЛҚИНИ". *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.4 (2020).
9. Sharipova D., D.P. Xodiyeva, M.K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil. Internet manbalari:
10. <http://www.uzinfocom.uz/lang> uzb-axborot texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish markazi ko'magida ishlab chiqilgan sayt
11. www.uznature.uz - O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi sayti.
12. www.eco.uz - O'zbekiston ekologik harakati sayti.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Сабиров Азизбек Азадович

Магистрант Ургенчский государственный педагогический институт

Аннотация. В данной статье раскрывается проблема применения современных информационных технологий (ИКТ) в процессе формирования математической культуры учеников начальных классов. Излагается, что средства ИКТ в данном процессе повышают качество образования и расширяют возможности усвоения учащимися младшей школы материала и способствуют развитию математической культуры.

Ключевые слова: математическая культура, современные информационные технологии, учащиеся начальных классов, математические умения, проектор, телевизор, интерактивная доска, аудиопроигрыватель.

Annotation. This article reveals the problem of using modern information technologies (ICT) in the process of forming the mathematical culture of primary school students. It is stated that the means of ICT in this process improve the quality of education and expand the opportunities for students to master the material and contribute to the development of mathematical culture.

Key words: mathematical culture, modern information technologies, primary school students, mathematical skills, projector, TV, interactive whiteboard, audio player.